

1937-YILNING VAXSHIY TO`LQINI YOXUD
CHO`LPONNING ACHCHIQ QISMATI

Samandar O`rinboyev

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi” fakulteti

I-o`quv kursi kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqola Cho`lponning hayoti va ijodi qolaversa uning qismatiga bag`ishlanadi. Shu o`rinda maqola orqali xalqimizning ardoqli jadidchilarini va ular orasida Cho`lponning boshidan kechirgan jabr zulmlari haqida yoziladi.

Kalit so`zlar: Vaxshiy to`lqin, tarjimon, zaxarli qamchi, keskir qilich ustidagi tovonlar.

XX asr dramaturgi , sheriyatning yirik vakili , o`zbek nasri , tanqidchiligiga katta xissa qo`shgan mutaffakir “Qalandar” , “Mirzoqalandar” , “Andijonlik” , “Cho`lpon” kabi tahalluslar bilan ijod qilgan Abdulhamid Sulaymon o`g`li Cho`lpon 1897-yilda Andijonning Marhamat tumani Qatorterak mahallasida bazzos ya`ni gilam bilan savdo qiluvchi hunarmand savdogar oilasida dunyoga keladi. Uning otasi Sulaymonqul Mulla Muhammad Yunus o`g`li zamonasining peshqadam ziyolilaridan bo`lib , “Rasvo” tahallusi bilan hajviy (she`rlar) g`azallar yozgan . Onasi Oysha aya esa garchi o`qimishli bo`lmasalarda o`g`lining ijodiga juda katta ta`sir ko`rsatgan. Cho`lpon o`zi haqida shunday yozadi: “ *Har holda bemavridroq bo`lsa ham kambag`al, hunarmandchilik bila kun kechirguvchi bir oilada... tug`ilg`onman* ”.

Abdulhamid avval eski maktabda , so`ng rus-tuzem mактабида xat savodini chiqargach , Andijon va Toshkent madrasalarida taxsil ko`radi . U arab, fors , turk var us tillarini mukammal egallaydi . Abdulhamid Sharq lirikasini , adabiyotini shu qadar sevib mutoala qiladiki, butun umri davomida Firdavsiy , Hofiz ,Sa`diy , U. Hayyom , Rumiy , Navoiy, Tavfiq Fikrat, Nomiq Kamol , Abdulla To`qay kabi buyuk so`z san`atkorlarining asarlarini yod olishdan to`xtamagan Cho`lpon 14 yoshlarida shunday yozadi: “ *1912-yilda manfaktor bila savdo qiluvchi bir kishiga yiliga 50 so`m barobariga prikazchik bo`lub kirdim...* ” 16 yoshidan ijod qila boshlagan Cho`lponning ilk asarlari “ Qurbanji jaholat” bu asari orqali Cho`lpon o`sha davrdagi ilmsizlik , o`g`irlilik , tubanlik haqida yozadi . Bunda u “Eshmurod “ obrazi orqali tuxmat toshlariga chiday olmay o`z joniga qasd qilgan odamni yoritadi. Bundan tashqari Cho`lponning “Do`xtur Muhammadiyor”, “Oydin kechalarda “, “Qor qo`ynida lola” , “Klyupatra”, “Seni ko`p ko`rmasun “, “Nonushta”, “Novvoy qiz” , “Taraqqiy”, “Oqposhshoning in’omi” kabi o`sha davrning razilliklari, ilmsiz kishilarning hayoti

haqida yoritgan hikoyalarni xalqimizga tuxfa etadi. O`zbek romanchiligining ilk diliqiyasi ham Cho`lpon qalamiga mansub bo`lib, “Kecha va Kunduz”dir. Bu romani orqali Cho`lpon o`sha davrdagi qabohat botqog`iga botgan kishilarning va achchiq qismati haqida yozgan. Uning bu romani qamoqda bo`lgan paytida “Kunduz” qismi yo`q qilib yuborilgan.

Cho`lpon 1918-yilda Orenburgga boradi va Boshqirdiston hukumatining raisiga kotib bo`lib ishga kiradi . Cho`lpon nafaqat yozuvchi, shoir, dramaturg , tanqidchi balki mohir tarjimon ham bo`lgan, bunga yorqin misol Uiliyam Shekspirning “Hamlet” , Pushkinning “Boris Godunov” va “Dubrovskiy” , Gogolning “Tergovchi”, Andreyevning “Osilgan yetti kishining hikoyasi “ , Gotkiyning “Yegor Bulichev va boshqalar”, “Ona” kabi asarlarini tarjima qilganidir.

Siyosiy idoralarning doimiy ta`qibi va tayziqi , Bolshevik tanqidchilarining esa “zaxarli qamchisi” ostida yashagan Cho`lpon umrining so`nggi yillarda siyosatdan qanchalik uzoq turishga harakat qilmasin, 1937-yilning “vaxshiy to`lqini” uni ham o`z qa`riga tortdi. U 1937-yil 14-iyulda qamoqqa olinadi.

4-oktabr kuni dunyoda” Butun jahon jonivorlarni himoya qilish kuni” hisoblanadi. Bu sana 1931-yildan beri nishonlanib kelinadi. Biroq XX asrning 30-yillarda Turkistonda hayvonlar tugul insonlar hayotining ham zarracha qadri yo`q edi. Bu davr “qonli davr” sifatida qolib ketdi . Ayniqsa 1937-1938-yillarda qatag`onlar avj olgan bo`lib , bu vaqt mobaynida O`zbekistonda 43 ming kishiga turli ayblovlar qo`yilgan . Ko`plab manbaalarning ta`kidlashicha ularning 6920 nafari otuvga hukm qilingan bo`lsa, 37 mingdan ortiq odam surgun qilingan yoki qamalgan . Chunonchi 1938-yil 4-16-oktabr kunlari 507 nafar O`zbekiston SSR fuqarosiga sud hukmi o`qilgan. Ushbu hukm o`qilganlar ichida o`zbek xalqining ma`rifatparvarlari, A. Qodiriy, A.Fitrat, G`ozi olim Yunus, Otajon Hoshim , Hudoybergan Devonovlar qatorida Cho`lpon ham bor edi. Filologiya fanlar nomzodi Naim Karimovning yozishicha yuqoridagi olimlar otuvga hukm qilingan , hukm 5-oktabr kuni amalga oshirilishi kerak edi , ammo 4-oktabr kuni otuv amalga oshirilgan. Ulardan birgina Cho`lponga o`q yetishmaydimi yoki moltiq ishlamay qolganmi uni ertasi kuni o`ldirmoqchi bo`lishganida Cho`lpon shunday deydi: “O`ldiringlar... o`ldiringlar bu qyinoqlardan qutulay, siz razil kimsalarning dunyoyingizda bir kun ham yashagim kelmayapti” deganida jallodlar kelib uni 1938-yil 4-oktabr kuni vaxshilarcha bolta bilan chavaqlab tashlashadi. Uning o`limini 5-oktabrda bo`lgan deya rasmiylashtirishgan. Xalqni, millatni razilik botqog`idan chiqarmoqchi bolishgan Cho`lpon kabi jaded va ziyyolilar “Xalq dushmani ” deya qamoqqa olinib, qyinoqlarda o`lim topganlar.

Mustaqillik yillarimizda jadidlarimizning nomlari uluglanib, xotirasi tiklandi. Ularning bu kabi mashaqqatli ishlariga turli xil davlat mukofotlari berilib turli joylarda ularning haykallari va byustlari o`rnatalgan.

Balki, Cho'lpon o'zining 1936-yilda yozilgan “Kecha va Kunduz” romani orqali “Kecha” qismida jabr-zulmni, “Kunduz” qismda mustaqillikni, hurriyatni bayon etganligi uchun ham “Kunduz” qismi yo'q qilib yuborilagandur.

Ha... albatta o'z jonni, bor kuch g'ayratini xalqning marfatli bo'lishiga, mustallikka erishishi uchun ayamasdan “Keskir qilich ustida tovonlari” bilan harakat qildilar-u, biz yoshlar vatanimiz uchun kuch g'ayratnimizni ayashimiz kerakmi?

“Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan qaralgan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizg'a emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'an, o'tkur yurak kirlarni yuvadurg'an toza ma'rifat suvi, xirralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurg'an , chang va tuprog'lar to'lган ko'zlarimizni artub tozalaydurg'an buloq suvi bo'lg'anlikdan bizg'a g'oyat kelakdur ”.

Foydalilanigan adabiyotlar:

Cho'lpon

Abdulhamid Sulaymon o`g`li

Asarlar 4 jildlik 1,2,3,4 jildlari

Akademnashr, 2016.-Toshkent.

<https://tafakkur.net/abdulhamid-cholpon.haqida>

https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdulhamid_Cho%CA%BBpon

<https://corp.uzairways.com/uz/abdulhamid-sulaymon-ogli-cholpon-1897-1938>